

Mahalla – moziy, bugun va kelajakni tutashtiruvchi maskan

Mamlakatimizda yoshlarni yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini to'liq o'zlashtirgan, qisqacha aytganda, barkamol insonlar etib voyaga etkazish, ularning zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida faolligini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilayapti. Bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakultet dekani Sh. Narbaev, yoshlar bilan ishslash bo'yicha dekan muovini H.Eshova, "Yerdan foydalanish" kafedrasi katta o'qituvchisi Z. Hafizova, hamda dekan muovini S.Abduraxmonovlar M.Ulug'bek tumanidagi "Asaka" mahallasiga tashrif buyurishdi. Tashrifdan maqsad O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta tashabbusi bo'yicha mahalla yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning sportga bo'lgan qiziqishlarini orttirish maqsadida, sportning shashka, shaxmat turi bo'yicha tadbir tashkil etildi. Ushbu tadbirda mahalladagi yoshlarimiz juda faol qatnashdilar.



Mamlakatimizda shaxmatni aholi o'rtasida keng targ'ib qilish, uni ommaviy sport turiga aylantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual va madaniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish doimiy e'tiborda. Bunda davlatimiz rahbarining yuqorida qayd etilgan qarori muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Musobaqani o'tkazishdan asosiy maqsad, bolalar va o'smirlarning shaxmat bilan shug'ullanishga qiziqishini oshirish, uni yanada ommaviylashtirishdan iborat. Mazkur musobaqa darhaqiqat, sportning ushbu turiga qiziqadigan o'quvchilarning ko'p ekanligini ko'rsatdi. Bahslar juda qiziq tarzda bo'lib o'tdi. Musobaqa yakunida g'olib bo'lgan yoshlarimizga institutimiz rahbariyati tomonidan munosib taqdirlandi. Ushbu musobaqadan bolajonlarimiz juda mammun bo'lishdi. G'oliblar tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Shuni alohida ta'kidlash joizki kelgusida shu kabi musobaqalar doimiy ravishda o'tkazilishi rejalashtirib olindi.

YERB fakulteti Yoshlar bilan ishslash bo'yicha dekan muovini H. Eshova axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati